

Alisher Navoiy tavalludining 585-yilligi nishonlandi

2026 10 Fevral

Poytaxtimizdagi Adiblar xiyobonida davlat arbobi, shoir va buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tavaludining 585-yilligi munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi. Tadbirda Uzbekistan Airways xodimlari ham ishtirok etdilar.

Yozuvchilar uyushmasi, davlat tashkilotlari, idoralari hamda vazirliklar vakillari ishtitok etgan mazkur tadbirda ulug' shoirning asarlari, hayoti va ijodi haqida so'z bordi.



Buyuk olim va soʻz mulkining sultoni Hazrat Alisher Navoiyning hayoti va ijodi oʻsib kelayotgan yosh avlodga va yoshu-qariga birdek namuna boʻlib xizmat qiladi.

Tadbir davomida ulugʻ shoir haykali poyiga gulchambarlar qoʻyilib, uning xotirasiga ehtirom koʻrsatildi.